

# Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga ovoz berish tartibi qanday?

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishtirok etishi **ixtiyoriy va erkindir**. Fuqarolarni saylovda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka majbur qilish maqsadida ularga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek ularning o'z xohish-irodasini erkin bildirishiga **ta'sir ko'rsatishga hech kim haqli emas**.

Fuqarolar yig'ini raisini (oqsoqolini) **saylash huquqiga saylov kuni 18 yoshga to'lgan** hamda shaharcha, qishloq, ovul, shuningdek shahardagi, shaharchadagi, qishloqdagi, ovuldagi mahalla hududida (bundan buyon matnda tegishli hudud deb yuritiladi) doimiy yashovchi fuqarolar ega bo'ladi.

Sud tomonidan **muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar** fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida ishtirok etishi **mumkin emas**.

## Fuqarolar yig'ini raisi saylovini tashkil etish va o'tkazishda oshkoralik:

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikri inobatga olingan holda **ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi**.

**Tuman yoki shahar hokimi** fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga taqdim etilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqadi va o'zining ushbu **nomzodlar bo'yicha asoslantirilgan xulosalarini** keyinchalik ishchi guruhlarga topshirish uchun tegishli komissiyalarga yuboradi.

## Ovoz berishni o'tkazish tartibi

- Ovozlarni sanash natijalari bo'yicha sanoq komissiyasi tomonidan **bayonnoma tuziladi** va bayonnoma sanoq komissiyasining raisi hamda a'zolari tomonidan **imzolanadi**.

Ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning **yarmidan ko'prog'ining ovozini olgan nomzod** fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga saylangan deb hisoblanadi.

- Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) saylov yakunlari bo'yicha **qaror qabul qiladi**, bu qaror fuqarolar yig'inida (fuqarolar vakillarining yig'ilishida) raislik qiluvchi tomonidan **o'qib eshittiriladi**.